



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5

Google
Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, may.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehnonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHİYATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'RNI	18
O'rinov Akmaljon Ahmadjonovich Siddiqov Javlonbek Sodiqjon o'g'li XORAZM VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING JORIY HOLATI VA RIVOJLANISH OMILLARI TAHLILI	22
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna ENERGETIKA INFRATUZILMASINING HUDUDIY RIVOJLANISH VA IJTIMOY TENGLIKKA TA'SIRI.....	27
Babajanova Dilfuza Abdurasulovna HUDUDLARDA LOKAL TURIZM XIZMATLARINING TARKIBI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI TAHLILI (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)	32
Xasanova Mavjuda Ma'mirjonovna TURIZM MAVSUMIYLIGI OMILLARINING KOMPLEKS TAHLILI: TASNIFLASHNING KONSEPTUAL VA INTEGRATSION MEKANIZMLARI.....	41
Barotov Umidjon Mahmud o'g'li BOSHQARISH SIFATI MOHIYATI VA UNI OSHIRISHNING OBYEKTIV ZARURIYATI.....	48
Shoyev Davronbek Axmadjonovich Abdullayeva Gulsanam ENGLISH LOANWORDS IN RUSSIAN AND UZBEK: TERMINOLOGICAL ADAPTATION WITHIN A COMPARATIVE LINGUISTICS FRAMEWORK	53
Kambarova Liliya Ruslanovna РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ФОРМИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ И ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНВЕСТИЦИЙ	56
Алибекова Саодат Лапасовна EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN SANOAT KORXONALARIDA MARKETING XIZMATINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	61
Usmonova Dilfuza Iloxomovna O'ZBEKISTON INDIVIDUAL SPORTCHILARINI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVIGA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI JORIY ETISHNING SAMARALI USULLARI.....	66
Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li KORXONA IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ERP TIZIMLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	72
Xaydarova Kamola Axinjanovna Berdiqulov Suhrob Berdiqulov o'g'li KORPORATIV BIRLASHISHLAR VA QO'SHIB OLISHLAR: NAZARIY ASOSLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	78
Latipova Shaxnoza Maxmudovna Xolmurodova Sevara Asqarovna DAVLAT BUDJETI KAPITAL XARAJATLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	84
Guzal Navruzova KORXONALARNING INNOVATSION RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA INVESTITSIYA VA MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARI	88
Mamayeva Diyora Kurbanbayevna MARKAZIY VA JANUBIY O'ZBEKISTON MINTAQALARI SANOATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KO'RSATGICHLARI HOLATI	94
Uralov Eliboy Omonovich	



O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARNI QO'LLASH	100
Dilfuza Xamzayeva Xurshid Xurramov	
TO'QIMACHILIK SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA STRATEGIK YONDASHUVLARDAN FOYDALANISH	106
Otaxonova Roza Boboxon qizi	
APPLICATIONS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF BANKING SERVICES.....	111
Mamutova Aygul Kalmurzaevna, Yaxyayeva Inobat Karimovna	
INVESTITSIYANING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDAGI ASOSIY IMKONIYATLARI	118
Rapikov Toxirjon Yuldashbayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI	122
Yahyoxonov Niyozxo'ja Bahroil o'g'li	
ALOQA KORXONALARI MOLİYAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI VA PROGNOZLARI.....	128
Ismailov Xusanboy Mahammadqosim o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT IQTISODIY BOSHQARUVINING ROLI VA AHAMIYATI	133
Xatamova Gavhar Kiyamovna	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNI DAVLAT TOMONIDAN MOLİYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	138
Seitnazarov Baxadir Muratbaevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING TASHQI SAVDO FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	144
Ismailov Erkin Faxretdinovich	
THE ROLE OF INNOVATIVE MARKETING STRATEGIES IN THE GLOBAL BUSINESS ENVIRONMENT	148
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Nigora Fayzulla kizi Sayfullaeva, Maftuna Rustambek kizi Khojiakbarova	
AGROKLASTER – AGRAR SOHANING RIVOJLANISH NUQTASI	154
Boltayev Nazarbek Narzullayevich	
RAQAMLI BANKLAR RESURS BAZASINI OPTIMALLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	159
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'ZBEKISTON DON SANOATIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA UNING STRATEGIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	164
Kurbanova Nigora Abduraxmanovna	
RESPUBLIKAMIZDA AGROLOGISTIKA XIZMATLARI VA UNING SAMARADORLIGI.....	169
Azizova Dilafruz Habibullayevna	
INVESTITSIYA LOYIHALARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH VA BAHOLASHDAGI MUAMMOLAR.....	172
Ulashev Jahongir Xushmuradovich, Baxriddinova Yulduz Baxriddin qizi	
O'ZBEKISTON ENERGETIKA TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	176
Yusupov Ulug'bek Shukrullayevich, Kodirova Xilola Joxongir qizi	
IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BYUDJETGA SOLIQ TO'LOVLARINI HISOBGA OLISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	183
Azimova Feruza Payziyevna, Madaminjonov A.	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA MEHMONXONA XIZMATLARIDA VAQTNI BOSHQARISHNING XIZMAT SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	188
Tolipova Malika Saloxidinovna	



AGROKLASTERLARNI TASHKIL ETISH — QISHLOQ XO'JALIGI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	192
Yeshimbetov Uktamjon Xudaybergenovich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	198
M.I. Murodova	
“YASHIL” INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARIGA ERISHISH MEXANIZMLARI	203
Muxtorov Ilhom Avazjon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA SANOATNING YASHIL TRANSFORMATSIYASI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA OMILLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	211
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMIDA MOLIYAVIY RESURLARNI SAMARALI TAQSIMLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	216
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
DON MAHSULOTLARI KORXONALARIDA RESURLARDAN FOYDALANISHNING IQTISODIY AHAMIYATI	221
Aipova Iroda Ikramovna	
ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA MARKETING BOSHQARUVINING HOLATINING TAHLILI	226
Musayeva Shoira Azimovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI: XALQARO TAJRIBA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	232
Egamova Komila Bekchon qizi, Nasirova Kamola Alimovna	
РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ В ТРАНСФОРМАЦИИ К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ПРОСТРАНСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ АНДИЖАНСКОГО РЕГИОНА.....	239
Кадырова Лола Алимджановна, Эгамов Бахтиёржон Нурметович	
REAL SEKTOR KORXONALARINI MOLIYALASHTIRISHDA ISLOM MOLIYASINING O'RNINI OSHIRISH.....	246
Sevara Hakimova Rustam qizi	
TIJORAT BANKLARI DAROMADLARI TARKIBI VA DINAMIKASINING STATISTIK TAHLILI	251
Abdukaxarova Shoira Abduvaxobovna	
YASHIL INNOVATSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH VA AMALGA OSHIRISH IQLIM O'ZGARISHLARIGA MOSLASHISHNING ASOSIY OMILI SIFATIDA: TIZIMLI TAHLIL VA KELGUSI TADQIQOT YO'NALISHLARI	255
Turanov Suhrob Bahodir o'g'li	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI MEDIA IMIJINI KAPITALLASHTIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YANGI YONDASHUVLAR	262
Nazarov G'ulom Akmal o'g'li	
“YASHIL IQTISODIYOT” VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINI JORIY QILISH TA'LIMINI TASHKIL ETISH: ADABIYOTLAR SHARHI VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR TAJRIBASI ASOSIDA NAMUNAVIY O'QUV DASTURLARINI ISHLAB CHIQISH USLUBIYOTI	269
Raxshona Nabibullayeva	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA LIZING HISOBINI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH	275
Baxadirov Alisher Komilovich	
TIJORAT BANKLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	281
Nomozov Umid Iskandarovich	
GLOBAL BRANDING VS. LOCAL BRANDING: STRATEGIC TRADE-OFFS IN INTERNATIONAL MARKETING.....	285
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Mamasolieva Kamila, Akhmedova Zaynabkhon Khayrullo qizi	



QISHLOQ XO'JALIGI ISHLAB CHIQARISHIDA RISKLARNI BOSHQARISH VA SUG'URTA TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI.....	293
Sayfutdinova Soxiba Abdugafurovna	
XORIJIY MAMLAKATLARDA BIZNES INKUBATORLAR FAOLIYATINING INSTITUTIONAL MODEL, RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ILG'OR TAJRIBALARI	297
Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich, Odilov Akmal Baxrom o'g'li, Atayeva Hulkaroy Murod qizi	
XALQARO TAJRIBALARDA KICHIK KASSA AMALIYOTINI JORIY QILISH MASALALARI	302
Eshonqulov Akmal Qudratovich	
O'ZBEKISTON KICHIK VA O'RTA KORXONALARI O'RTASIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHDAGI TO'SIQLAR	306
Raxmatova Sitora Shuhratjon qizi	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA DON MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARINING BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISH.....	316
Xamidova S.Ya.	



IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA DON MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINING BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL ETISH

Xamidova S.Ya.

Texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti
Iqtisodiyot, moliya va buxgalteriya hisobi kafedrası
professori v.b., Iqtisodiyot fanlari doktori
ORCID: 0009-0009-4143-4407

Annotatsiya. Mazkur maqolada iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida ishlab chiqarish xarajatlari boshqaruv hisobini tashkil etish va takomillashtirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar operatsion faoliyati samaradorligini oshirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish tizimini takomillashtirish hamda boshqaruv hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: boshqaruv hisobi, boshqaruv tahlili, boshqaruv kontrollingi, tezkor boshqaruv tizimi, kontrolling samaradorligi, kontrolling funksiyalari, kompleks boshqaruv tahlili, operatsion faoliyat samaradorligi.

Abstract. This article examines the issues of organizing and improving the management accounting of production costs in the context of economic development. The study also analyzes the theoretical and practical aspects of increasing the operational efficiency of business entities, improving managerial decision-making systems, and organizing management accounting in accordance with international standards.

Key words: management accounting, management analysis, management controlling, operational management system, controlling efficiency, controlling functions, integrated management analysis, operational efficiency.

Аннотация. В данной статье рассмотрены вопросы организации и совершенствования управленческого учета производственных затрат в условиях развития экономики. Также проанализированы теоретические и практические аспекты повышения эффективности операционной деятельности хозяйствующих субъектов, совершенствования системы принятия управленческих решений и организации управленческого учета на основе международных стандартов.

Ключевые слова: управленческий учет, управленческий анализ, управленческий контроллинг, система оперативного управления, эффективность контроллинга, функции контроллинга, комплексный управленческий анализ, эффективность операционной деятельности.

KIRISH

Jahonda xo'jalik yurituvchi subyektlarning barqaror iqtisodiy o'sishini, raqobatbardoshligini hamda xavf-xatarlarga moslashuvchanligini ta'minlashda samarali boshqaruvning roli beqiyosdir. Bugungi kunda boshqaruv qarorlarini strategik jihatdan to'g'ri va ilmiy asoslashda boshqaruv hisobi hamda ushbu yo'nalishda faoliyat yurituvchi mutaxassislarning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Jumladan, dunyoning yetakchi iqtisodiyotlaridan biri bo'lgan AQSH Mehnat statistikasi byurosi prognozlariga ko'ra, boshqaruv hisobi bo'yicha mutaxassislarga bo'lgan talab 2033-yilgacha o'rtacha 6 foizga oshishi kutilmoqda. Bu esa iqtisodiyot subyektlari faoliyatida boshqaruv hisobi va mazkur sohada yuqori malakali kadrlarning muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Shu bois, jahonda boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslarini yoritish hamda uning metodologik bazasini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar keng ko'lamda olib borilmoqda. Mazkur



tadqiqotlar natijasida boshqaruv qarorlarini qabul qilishda boshqaruv hisobini samarali tashkil etishning nazariy asoslari, shuningdek, menejerlarni tezkor, ishonchli va aniq axborot bilan ta'minlash mexanizmlari yanada takomillashtirilmoqda.

Ayni paytda don mahsulotlarini qayta ishlash korxonalarida boshqaruv hisobi metodologiyasini rivojlantirish, ixtisoslashtirilgan javobgarlik markazlarini samarali boshqarish, boshqaruv hisobi usullarini zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish, samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda operatsion, moliyaviy, investitsion va innovatsion faoliyatni byudjetlashtirish bilan bog'liq masalalar dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda "boshqaruv hisobi" atamasi turlicha talqin qilinadi. Masalan, Ch.T.Xorngrenning fikricha, "Boshqaruv hisobi — bu ma'lum obyektlarni boshqarish uchun zarur bo'lgan axborotni identifikatsiyalash, o'lchash, to'plash, tizimlashtirish, tahlil qilish, sharhlash va foydalanuvchilarga yetkazib berish jarayonidir". Muallif ushbu tushunchaning sinonimi sifatida "ichki hisob" atamasini ham qo'llaydi.

I.G.Kondratova boshqaruv hisobiga quyidagicha ta'rif beradi: "Boshqaruv hisobi — bu korxona rahbarlari va mutaxassislarini boshqaruv qarorlarini qabul qilish hamda ishlab chiqarishning o'zgaruvchan sharoitlariga tezkor moslashish uchun zarur bo'lgan axborot bilan ta'minlovchi hisob tizimidir. Ushbu ma'lumotlar tijorat siri sifatida himoyalaniishi mumkin".

T.A.Karpovanning fikricha, "Boshqaruv hisobi rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish maqsadlarida axborotni yig'ish hamda qayta ishlashni ta'minlaydi".

K.Druri esa boshqaruv hisobini "korxonani boshqarish xarakteridagi chora-tadbirlarni rejalashtirish, nazorat qilish va tartibga solish faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni tayyorlash tizimi" sifatida tavsiflaydi.

A.Yarugova yangi iqtisodiy tizimda buxgalteriya hisobining o'rni yuqori ekanligini ta'kidlab, "zamonaviy boshqaruv hisobining maqsadi korxonani boshqarish jarayonlarini axborot yordamida modellashtirishdan iborat", deb hisoblaydi.

N.D.Vrublevskiy boshqaruv hisobining mohiyatini yanada aniqroq ochib beradi. Uning fikricha, "Boshqaruv hisobi — bashorat qilish, rejalashtirish, taqsimlash, byudjetlashtirish, tahlil hamda ishlab chiqarish xarajatlari hisobining barcha quyi tizimlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan korxona boshqaruv tizimining mustaqil funksiyasidir".

Iqtisodchi olim A.D.Sheremet boshqaruv hisobini quyidagicha talqin qiladi: "Boshqaruv hisobi buxgalteriya hisobining quyi tizimi bo'lib, korxona boshqaruv xodimlarini faoliyatni rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish uchun zarur ma'lumotlar bilan ta'minlaydi".

A.A.Abdug'aniyevning e'tirof etishicha, "Boshqaruv hisobi — korxonaning ichki boshqaruvchilari uchun davr talablarini inobatga olgan holda samarali boshqaruvni tashkil etish, rejalashtirish, tahlil va nazoratni amalga oshirish, shuningdek, zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish uchun kerak bo'ladigan aniq hisob ma'lumotlarini tezkor yetkazib beruvchi tizimdir".

B.A.Xasanovning ta'kidlashicha, "Boshqaruv hisobi — bu ichki xo'jalik hisobining o'tgan, hozirgi va kelgusi davr nuqtai nazaridan korxona hamda uning tarkibiy bo'linmalari xarajatlari va moliyaviy natijalari to'g'risidagi axborotni yaxlit holda aks ettiruvchi tizimdir".

M.Sh.Mamatkulov esa "Boshqaruv hisobi deganda korxonaning ta'minot, ishlab chiqarish, sotish yoki xizmat ko'rsatish jarayonlarini samarali boshqarish va optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborotlar tizimini shakllantirish hamda undan oqilona foydalanishga qaratilgan hisob tizimi tushuniladi", deb ta'rif beradi.

Bizning fikrimizcha, boshqaruv hisobi — bu korxona doirasidagi ichki axborot tizimi bo'lib, u korxona faoliyatini strategik rejalashtirish, nazorat qilish va samarali boshqarish uchun zarur ma'lumotlarni shakllantiradi. Mazkur jarayonda korxona rahbarlari boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalaniladigan barcha axborotni tizimli ravishda yig'ishi, chuqur tahlil qilishi hamda boshqaruv axborotlarining to'liqligi, ishonchligi va tezkorligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratishi zarur. Bu esa boshqaruv hisobi samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ma'lumotlar korxonalarning moliyaviy hisobotlari, ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlar hamda sohaviy statistik manbalar asosida shakllantirildi. Tahlil jarayonida korrelyatsion va regressiya tahlili, shuningdek, klaster tahlili kabi iqtisodiy-matematik usullardan foydalanildi. Xarajatlarning mahsulot tannarxiga ta'sirini baholash hamda unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash maqsadida dinamik qatorlar tahlili ham amalga oshirildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy boshqaruv hisobi Yevropa davlatlarida “kontrolling” atamasi bilan ifodalanadi. Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda ushbu tushuncha boshqaruv, operativ, strategik hisob va ichki nazorat kabi yo‘nalishlarga ajratilgan holda talqin qilinadi. Ba’zi iqtisodchilar kontrollingni resurslardan samarali foydalanish jarayonini rejalashtirish hamda moliyaviy nazoratni amalga oshirishga qaratilgan funksional tizim sifatida baholaydilar.

Bizning fikrimizcha, me‘yorlashtirish (standartlashtirish) va prognozlashtirish kabi elementlarni kiritish orqali mazkur funksiyaning mazmuni va samaradorligi yanada to‘liq namoyon bo‘ladi. Bunda kontrollingning asosiy funksiyasi resurslarni shakllantirish hamda ulardan samarali foydalanish jarayonlarini boshqarish orqali ifodalanadi.

Bizning nuqtayi nazarimizga ko‘ra, yuqorida keltirilgan yondashuvlar ayrim mualliflar tomonidan mazkur tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligini yanada chuqurroq va tizimli yoritish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi. Shu sababli, boshqaruv hisobi, tahlil va nazorat tizimlari o‘rtasidagi funksional chegaralarni aniq belgilash muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki hisob, tahlil va nazorat jarayonlarida qabul qilinadigan qarorlarning o‘zaro uyg‘unligi korxona umumxo‘jalik faoliyatini samarali boshqarish hamda boshqaruv tizimining asosiy vazifalarini to‘laqonli amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu esa korxona faoliyati samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.


Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, muallif tomonidan boshqaruv hisobi, boshqaruv kontrollingi (operativ va strategik), kontrolling natijaviyligini baholash mezonlari hamda ularning asosiy funksiyalarining prinsipial farqlari tizimli ravishda shakllantirilib, ushbu jadvalda aks ettirilgan (1-jadval).

1-jadval. Boshqaruv hisobi va kontrolling natijaviyligini baholash¹

Asosiy funksiyalar	Natijaviylikni baholash mezonlari
Boshqaruv (tezkor va strategik) kontrollingi	
Korxonaning strategik maqsadlari va natijalari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta‘minlash maqsadida ichki nazoratni amalga oshirish. Kompleks boshqaruv tahlili natijalari asosida haqiqiy ko‘rsatkichlarning reja ko‘rsatkichlaridan farqlanishini monitoring qilish hamda ularning sabablarini izohlash. Faoliyat natijalarini to‘liq va obyektiv aks ettiruvchi hisobotlarning integral tizimini shakllantirish. Pul mablag‘lari tushumi va xarajatlari ustidan nazoratni amalga oshirish. Qonunchilik talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni ta‘minlash.	Hisob va hisobot tizimining integrallashuv darajasi. Boshqaruv, moliyaviy, statistik, soliq va buxgalteriya hisobi hamda hisobotiga oid qonunchilik talablariga rioya qilinishi. Rejadan chetlanishlarni o‘z vaqtida aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish samaradorligi.
Boshqaruv hisobi	
Boshqaruv hisobi — bu korxona doirasidagi ichki axborot tizimi bo‘lib, u korxona faoliyatini operativ va strategik rejalashtirish hamda samarali boshqarish uchun zarur bo‘lgan axborotni shakllantiradi. Mazkur jarayonda korxona menejerlari boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axborotni tizimlashtirishi va tahlil qilishi zarur. Shu bilan birga, boshqaruv axborotlarining to‘liqligi, ishonchiligi va tezkorligini ta‘minlash boshqaruv hisobining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Boshqaruv qarorlarining muqobil variantlarini ishlab chiqish va ularning natijalarini prognozlash muhim ahamiyat kasb etadi.	Qarorlar qabul qilish uchun zarur bo‘lgan axborotni rahbariyatga o‘z vaqtida taqdim etish darajasi. Tavsiya etilayotgan statistik, moliyaviy hamda boshqa turdagi (ekologik, ijtimoiy va boshqaruvga oid) ko‘rsatkichlarning asoslanganligi. Salbiy tendensiyalarni o‘z vaqtida aniqlash hamda samaradorlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish darajasi.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, boshqaruv kontrollingining asosiy funksiyalari korxonaning strategik maqsadlari va natijalari o‘rtasidagi muvofiqlikni ta‘minlash maqsadida ichki nazoratni amalga oshirish, boshqaruv uchun zarur bo‘lgan axborotlarning integrallashgan tizimini shakllantirish hamda ko‘rsatkichlarning amaliy ahamiyati monitoringini olib borishdan iboratdir. Shuningdek, moliyaviy reja ko‘rsatkichlariga moslikni ta‘minlash, mavjud holatdan kelib chiqib moliyaviy reja ko‘rsatkichlarini aniqlashtirish va qonunchilik talablariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish ham boshqaruv kontrollingining muhim yo‘nalishlari hisoblanadi (1-rasm).

1 Muallif ishlanmasi.

1-rasm. Korxonada nazorat tushunchasi².

Boshqaruv hisobining asosiy funksiyasi korxona faoliyatini operativ va strategik rejalashtirish hamda samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan axborot bilan ta'minlashdan iboratdir. Bunda korxona menejerlari boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida mavjud axborotlarni tizimlashtirishi va chuqur tahlil qilishi zarur. Shuningdek, ular boshqaruv axborotlarining to'liqligi, ishonchliligi va tezkorligiga alohida e'tibor qaratishlari, shu orqali boshqaruv hisobini samarali tashkil etishlari lozim.

Boshqaruv hisobidan samarali foydalanish boshqaruv qarorlarining muqobil variantlarini ishlab chiqish, ularning natijalarini prognoz qilish hamda korxona faoliyati samaradorligini oshirish imkonini beradi (2-jadval).


2-jadval. Boshqaruv kontrollingini funksiyalari³

Tizim xususiyatlari	Xarajatlarni boshqarish tizimi	Kontrolling
Maqsad	Xarajatlarni optimallashtirish va samaradorlikni oshirish	Qabul qilinadigan boshqaruv qarorlarining sifatini oshirish
Quyi tizimlar va maqsadga erishishni ta'minlovchi funksiyalar	Funksional yo'nalishlarni boshqarish funksiyalari	Boshqaruv funksiyalari hamda boshqaruv va qaror qabul qilish texnologiyalari
Ijrochilar va resurslar	Mehnat resurslari, materiallar, kapital, energiya va axborot resurslari	Boshqaruv subyektlari, boshqaruv funksiyalari hamda qaror qabul qilish texnologiyalari
Obyektlar	Xarajat markazlari va xarajat obyektlari	Boshqaruv tizimi
Boshqaruv tizimining tuzilishi	Tashkiliy tuzilma	Model tuzilishi (metamodel)
Miqdoriy xarakteristikalar	Iqtisodiy ko'rsatkichlar qiymati	Qarorlar sifati mezonlari qiymati
Boshqariladigan omil	Xarajatlar miqdori va ulardan foydalanish samaradorligi	Foydani maksimal darajada oshirishni ta'minlovchi modellarning izchillik darajasi

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, boshqaruv tizimining xususiyatlaridan kelib chiqib, ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarish tizimi shakllantiriladi. Shuningdek, boshqaruv kontrollingining (tezkor va strategik) funksiyalarini amaliyotda samarali qo'llash korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi (2-rasm).

² Muallif ishlanmasi.

³ Muallif ishlanmasi.

2-rasm. Tezkor boshqaruv tizimi⁴.

Kontrolling — bu boshqaruv hisobi, rejalashtirish, byudjetlashtirish, rejali va haqiqiy koʻrsatkichlar oʻrtasidagi tafovutlarni tahlil qilish hamda nazoratni amalga oshirish, shuningdek, eng maqbul boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini qoʻllab-quvvatlovchi murakkab boshqaruv tizimidir. Korxonada kontrolling tizimini joriy etish orqali kompleks boshqaruv tahlilini samarali tashkil etish va boshqaruv faoliyati natijadorligini oshirish imkoniyati yaratiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy hisobotlar byudjetlashtirish va iqtisodiy tahlil jarayonlarida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, xarajatlar hisobi tizimining aniqligi va ishonchliligi ishlab chiqarish samaradorligi hamda foydalilik darajasini oshirish, korxonaning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash va uning raqobatbardoshligini taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xarajatlar hisobi konseptual asoslarini takomillashtirish uchun xarajatlarni aniq tasniflash hamda har bir xarajat turiga mos hisoblash usullarini belgilash zarur. Jumladan, mehnat, materiallar, energiya, amortizatsiya, xizmatlar va transport xarajatlarini toʻgʻri ajratish hamda ularni ishlab chiqarish jarayonlarida samarali nazorat qilish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, xarajatlar tasnifi milliy va xalqaro standartlar talablari asosida shakllantirilishi lozim.

Hisob-kitob jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirish, xususan, ERP tizimlari asosida boshqaruvni tashkil etish hisobotlarning aniqligi va tezkorligini taʼminlash imkonini beradi. Raqamlashtirish orqali hujjatlar aylanishini optimallashtirish, inson omili bilan bogʻliq xatolarni kamaytirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirishga erishiladi. Bundan tashqari, kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini muntazam oshirib borish xarajatlar hisobini samarali tashkil etishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mutaxassislarni amaldagi qonunchilik, zamonaviy standartlar va hisoblash usullari boʻyicha muntazam oʻqitish korxonalarning oʻzgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga tez moslashishiga hamda ishlab chiqarish jarayonlarida samaradorlikni yanada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasi. Toshkent shahri, 2023-yil 20-dekabr.
3. Oʻzbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi “Buxgalteriya hisobi toʻgʻrisida”gi OʻRQ-404-sonli Qonuni. <https://lex.uz/docs/-2931253>.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi “Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-4720-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/-2635197>.
5. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga oʻtish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-4611-son Qarori. <https://lex.uz/docs/-4746047>.

4 Muallif ishlanmasi.



6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 5-fevraldagi 54-son "Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/-264422>.
7. Джамбакиева Г.С. Финансовый учёт и отчётность: учебник. - 2018. - 248 с.
8. Шагиясов Т.Ш., Сагдиллаева З.А., Урманбекова И.Ф. Экономический анализ: учебник. - Т.: "IQTISOD-MOLIYA", 2017. - 440 с.
9. Sagdillayeva Z., Yuldasheva U., Xamidova S. Iqtisodiy tahlil: darslik. - Toshkent: Iqtisod-moliya, 2023. - 445 b.
10. Khamidova S.Ya. Product Costing of Fixed and Variable Costs Impact Analysis // European Journal of Business Startups and Open Society. - Available at: <http://innovatus.es/index.php/ejbsos>.
11. Xamidova S.Ya. "Xalqaro standartlar asosida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish" // Muhandislik va iqtisodiyot. - 2024. - № 4. - 418-b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
